

O‘ZBEK TILI LEKSIKASIDA MEVA NOMLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**Nabiyeva Rushana Jamol qizi****Xalqaro innovatsion universitet katta o‘qituvchisi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori****Qarshi, Uzbekistan****E-mail: rushana.nabiyeva@internet.ru****Xamroqulova Jasmina Zakirjon qizi****Xalqaro innovatsion universitet 3-bosqich talabasi
Qarshi, Uzbekistan**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20762356>**Annotatsiya**

Maqolada o‘zbek tili leksikasida qo‘llanadigan meva nomlari etimologik va leksik-semantik jihatdan tahlil qilinadi. Meva nomlari ho‘l mevalar, quruq mevalar va poliz mevalari nomlari guruhlariga ajratilib, ularning kelib chiqish manbalari aniqlanadi. Tahlillar natijasida o‘zbek tilidagi meva nomlarining asosiy qismi turkiy qatlamga mansubligi, shu bilan birga fors-tojik, arab, rus va boshqa tillardan o‘zlashgan birliklarning ham salmoqli o‘rin tutishi ko‘rsatildi. Shuningdek, globallashuv jarayonlari ta‘sirida tilga kirib kelayotgan yangi o‘zlashmalar va “ekzotik meva” tushunchasining lingvistik mohiyati yoritildi. Poliz mevalari nomlarining ko‘pligi o‘zbek xalqining tarixiy xo‘jalik faoliyati va madaniy turmush tarzi bilan bog‘liqligi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: fitonim, meva nomlari, etimologiya, o‘zlashma leksika, ekzotizm, poliz ekinlari nomlari, leksik-semantik guruh, etnolingvistika.

Har bir xalqning tili uning moddiy va ma‘naviy madaniyati, yashash tarzi hamda tarixiy taraqqiyotining muhim ko‘zgusidir. Til lug‘at tarkibidagi fitonimlar, xususan, meva nomlari xalqning tabiat bilan munosabati, dehqonchilik madaniyati va xo‘jalik faoliyati haqida muhim ma‘lumot beradi. O‘zbek tili leksikasida meva nomlari alohida leksik-semantik guruhni tashkil etib, ularning tarkibi nafaqat mahalliy turkiy qatlam, balki turli tarixiy davrlarda kirib kelgan o‘zlashmalar hisobiga ham boyigan.

O‘zbekiston hududi qadimdan bog‘dorchilik va polizchilik rivojlangan mintaqalardan biri bo‘lib, bu holat meva nomlari tizimining rang-barangligi va ko‘p qatlamlilikida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, qovun va tarvuz navlarini ifodalovchi nominativ birliklarning ko‘pligi o‘zbek xalqining dehqonchilik faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbek tilshunosligida fitonimlar, jumladan, meva nomlari turli jihatlarida tadqiq qilingan. Ekzotizmlar va o‘zlashma leksika masalalari yuzasidan U.Qo‘ziyev ekzotik leksikani boshqa tillardan o‘zlashgan, qabul qiluvchi til muhitida muqobili mavjud bo‘lmagan va axborot tashuvchi birliklar sifatida izohlaydi. Olimning fikricha, bunday birliklar tilning nominativ imkoniyatlarini kengaytiradi hamda madaniyatlararo aloqalarni aks ettiradi.

A.Xudayqulov ekzotizm terminining tilshunoslikka adabiyotshunoslikdan kirib kelganini ta‘kidlab, uni o‘zlashmalarni ifodalashda faol qo‘llanadigan tushunchalardan biri sifatida baholaydi. N.Omonturdiyev esa ekzotizmlarning “noekvivalent leksika”, “ekzotik leksika”, “turli xalqlar turmushini ifodalovchi leksika” kabi atamalar bilan izohlanishini qayd etadi. Bu qarashlar zamonaviy o‘zbek tilida uchrayotgan *avokado*, *guava*, *marakuya*, *pomelo* kabi yangi meva nomlarining lingvistik maqomini aniqlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Fitonimlarning leksik-semantik va stilistik xususiyatlari M.Usmonova tomonidan Alisher Navoiy asarlari misolida o‘rganilgan. Tadqiqotda meva va sabzavot nomlarining qo‘llanish

chastotasi hamda badiiy-estetik vazifalari tahlil qilingan. Sh.Yoqubov esa Navoiy asarlarida o'simlik nomlarining taxallusga aylanish jarayonlarini yoritib bergan.

Poliz ekinlari nomlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar orasida M.Saparov va T.Numonov ishlari alohida ahamiyatga ega. Xususan, M.Saparov tomonidan 400 dan ortiq qovun va 100 ga yaqin tarvuz nomlari leksik-semantik jihatdan tahlil qilingan. Bu tadqiqotlar o'zbek tilida poliz ekinlari nomlarining serqatlam va murakkab tizim ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek tilidagi meva nomlari kelib chiqishi jihatidan bir necha qatlamlarga mansub bo'lib, ular orasida turkiy, fors-tojik, arab, rus va boshqa tillardan o'zlashgan birliklar mavjud.

1. Ho'l mevalar nomlari.

Ho'l mevalar nomlari tarkibida o'z qatlamga mansub birliklar son jihatdan ustunlik qiladi. Bular qatoriga *olma, olcha, o'rik, uzum, nashvati, tog'olcha, maymunjon, qorag'at, shumurt* kabi nomlar kiradi. Mazkur birliklar xalqning qadimiy bog'dorchilik tajribasi va tabiiy muhit bilan uzviy bog'liq holda shakllangan.

Fors-tojik tilidan o'zlashgan meva nomlari ham salmoqli o'rin egallaydi. *Anjir, anor, behi, gilos, nok, shaftoli, shotut, do'lana, zardoli* kabi nomlar asrlar davomida o'zbek tilining faol lug'at tarkibiga singib ketgan. Arab tilidan *tut, unobi, sultoni* kabi birliklar kirib kelgan bo'lsa, rus tili orqali *malina, smorodina, qulupnay* kabi nomlar o'zlashgan.

Yevropa va Osiyo tillaridan kirib kelgan *limon, apelsin, banan, ananas, kokos, mandarin, mango* kabi nomlar esa xalqaro savdo va madaniy aloqalar natijasida o'zbek tiliga kirgan. So'nggi yillarda *greypfrut, guava, avokado, laym, marakuya, pomelo, mangostan, tamarillo* kabi yangi meva nomlari ham faol qo'llanila boshladi.

2. Quruq mevalar nomlari

Quruq mevalar nomlari tarkibida ham turkiy qatlam yetakchi mavqega ega. *Yong'oq, veryong'oq, mayiz, turshak, qaysa, jiyda, chilonjiyda, qovunqoqi* kabi nomlar xalqning gastronomik madaniyatini aks ettiradi.

Fors-tojik tilidan o'zlashgan *bodom, pista, xurmo, danak, bargak* kabi birliklar ushbu guruhning asosiy qismini tashkil etadi. *Kashtan* nomi lotin tili orqali kirgan bo'lsa, zamonaviy o'zlashmalar sifatida *keshyu, pekan, kedr* va *muskat* nomlari qayd etiladi.

3. Poliz mevalari nomlari

Poliz mevalari nomlari o'zbek tili leksikasining eng boy qatlamlaridan biridir. *Qovun, tarvuz, handalak* kabi umumiy nomlar bilan bir qatorda *amiri, begimsuydi, bezkodi, gulobi, jo'raqand, qoraqand, oqurug', sapcha* kabi ko'plab nav nomlari ham mavjud.

Poliz mevalari nomlarining ko'pligi o'zbek xalqining tarixiy turmush tarzi bilan izohlanadi. F.Musayeva ta'kidlaganidek, ingliz tilida qovun birgina *melon* leksemi bilan ifodalansa, o'zbek tilida qovun navlarining yuzlab nomlari mavjud. Bu holat o'zbeklarning qadimdan qovunchilik bilan shug'ullanganligi va qovun navlarini puxta tasniflaganligidan dalolat beradi.

Qovun navlari ko'pincha ularni yetishtirgan mashhur qovunchilar nomi bilan yoki mevaning tashqi va ichki belgilariga ko'ra nomlangan. Masalan, *aligavhar, davlatboy, mullasapo, kampirqovun, atirqovun, toshqovun, yog'ochqovun* kabi nomlar buning yaqqol misolidir.

4. Ekzotik meva nomlari va ularning lingvistik xususiyatlari

Globalashuv jarayonlari natijasida o'zbek tiliga kirib kelayotgan yangi meva nomlari ko'pincha "ekzotik mevalar" deb atalmoqda. Lingvistik nuqtayi nazardan, bunday birliklar ekzotizmlar sifatida baholanishi mumkin. Ular o'zbek xalqining an'anaviy turmushida mavjud bo'lmagan predmet va tushunchalarni ifodalaydi hamda ko'pincha muqobilsiz leksik birlik sifatida qo'llanadi.

Avokado, guava, marakuya, pomelo, mangostan, orangelo kabi nomlar aynan shu turdagi leksik birliklar sirasiga kiradi. Ularning tilga kirishi xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi, oziq-ovqat bozori diversifikatsiyasi hamda ommaviy axborot vositalarining ta'siri bilan bog'liqdir.

Tarixiy manbalar esa bugungi kunda yangi deb qaralayotgan ayrim mevalarning qadimiy adabiy merosda ham uchrashini ko'rsatadi. Xususan, Alisher Navoiy asarlarida limon *“lemu”* va *“turunj”*, apelsin esa *“noranj”* shakllarida qo'llangan. Shuningdek, bugungi *“keshyu”* nomi tarixiy manbalarda *“javzi bo'yo”* tarzida uchrashi qayd etilgan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili leksikasidagi meva nomlari murakkab va ko'p qatlamli tizimni tashkil etadi. Ularning asosiy qismini turkiy qatlam birliklari tashkil etsa-da, fors-tojik, arab, rus va boshqa tillardan kirib kelgan o'zlashmalar ham muhim o'rin tutadi. Meva nomlari xalqning tarixiy taraqqiyoti, xo'jalik faoliyati va madaniy aloqalarini aks ettiruvchi etnolingvistik manba hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, poliz mevalari nomlarining son jihatdan ko'pligi o'zbek xalqining qadimiy dehqonchilik va qovunchilik madaniyati bilan bog'liqdir. Zamonaviy davrda esa globallashtirish ta'sirida o'zbek tilining meva nomlari tizimi yangi o'zlashmalar hisobiga yanada boyib bormoqda. Bu jarayon tilning nominativ imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, uning tarixiy va madaniy qatlamlarini ham boyitmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Қўзиев У.Я. Ўзбек тилидаги изоҳли луғатларда ўзлашма сўзлар таҳлили. Монография. – Наманган, 2016. – Б. 38
2. Худайқулов А.Э. Рус ва ўзбек расмий ҳужжатларида инглизча ўзлашмалар (ўтмиш ва ҳозирги замон ҳолати): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б 12–13.
3. Омонтурдиев Н. Сурхондарё этнографизмлари лингвокультурологик тадқиқ кесимида. // Илм сарчашмалари. 5-сон. – Урганч, 2019. – Б. 45–48.
4. Musayeva F. O'zbek xalq so'zlari. –Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023. – B. 24.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV томлик. –Тошкент: Фан, 1985.
6. Усманова М.С. Алишер Навоий асарларидаги фитонимларнинг лексик-семантик ва стилистик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Жиззах, 2022. – Б. 22.
7. Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. –Тошкент, 1994. – 26 б.
8. Сапаров М. Туркий тилларда полиз экинлари номлари // Ўрта Осиё ва Қозоғистон туркий тиллари лексикасидан тадқиқотлар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 176–250.
9. Нутманов Т. Термины бахчеводства в узбекском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1971. – С. 10.